

## MARKAZIY OSIYODA HADIS ILMINING RIVOJLANISHIDA IMOM AL-BUXORIYNING O'RNI

*Poyonov Behruz Rashid o'g'li*

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti*

*"Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi*

*behruz.poyonov1771@mail.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Markaziy Osiyoda hadis ilmining rivojlanishida Imom al-Buxoriyning o'rni va xizmatlariga bag'ishlangan. Unda Imom al-Buxoriy hayoti, ilmiy safarlari, shuningdek uning asarlari va ularning ahamiyati keng yoritilgan. Maqolada "Al-jome' as-Sahih" asarining tarkibi, undagi hadislar soni, rivoyatlar va isnodlarning ilmiy tahlili hamda insoniy va axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilishdagi roli ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, Imom al-Buxoriy merosi tufayli Movarounnahr hududida shakllangan hadis maktablari, ilmiy merosning tarjima va tadqiqotdagi ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. Maqola ilmiy va ma'naviy merosni o'rganish, hadis ilmini chuqur tushunish va islom tarixini tadqiq etishda foydali manba sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Imom al-Buxoriy, Hadis ilmi, Movarounnahr, Hadis, Islom tarixi, Markaziy Osiyo, Ilmiy meros, Tarjima va tadqiqot, Musulmon olami.

**Abstract.** This article is dedicated to the role and contributions of Imam al-Bukhari in the development of Hadith science in Central Asia. It extensively covers Imam al-Bukhari's life, scholarly travels, as well as his works and their significance. The article highlights the composition of "Al-Jami' as-Sahih," the number of hadiths within it, the scientific analysis of narrations and isnads, and its role in promoting human and ethical values. It also provides information on the Hadith schools formed in the Transoxiana region due to the legacy of Imam al-Bukhari, and the importance of this scholarly heritage in translation and research. The article serves as a valuable resource for studying scientific and spiritual heritage, deeply understanding Hadith science, and researching Islamic history.

**Keywords:** Imam al-Bukhari, Hadith science, Transoxiana, Hadith, Islamic history, Central Asia, Scholarly heritage, Translation and research, Muslim world.

**Аннотация.** Данная статья посвящена роли и вкладу Имама аль-Бухари в развитие науки хадисов в Центральной Азии. В ней подробно освещаются жизнь Имама аль-Бухари, его научные путешествия, а также его труды и их значение. В статье подчеркивается состав "Аль-Джами' ас-Сахих", количество хадисов в нем, научный анализ повествований и иснадов, а также его роль в продвижении человеческих и этических ценностей. Также представлена информация о школах хадисов, сформированных в регионе Мавераннахра благодаря наследию Имама

аль-Бухари, и о важности этого научного наследия в переводе и исследованиях. Статья служит ценным ресурсом для изучения научного и духовного наследия, глубокого понимания науки хадисов и исследования исламской истории.

**Ключевые слова:** Имам аль-Бухари, Наука хадисов, Мавераннахр, Хадис, Исламская история, Центральная Азия, Научное наследие, Перевод и исследования, Мусульманский мир.

### **Kirish**

Markaziy Osiyo qadimdan ilm-fan va ma'rifat markazlaridan biri sifatida dunyo sivilizatsiyasida muhim o'rin egallab kelgan. Ayniqsa, islom dini kirib kelgach, ushbu hududda diniy ilmlar, xususan hadis ilmi jadal rivoj topdi. Bu jarayonda yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va muhaddislarning xizmatlari beqiyos bo'lib, ular nafaqat mintaq, balki butun islom olami ilmiy tafakkuriga ulkan hissa qo'shdilar.

Hadis ilmining shakllanishi va rivojlanishida Markaziy Osiyolik allomalarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, Imom al-Buxoriy nomi bilan mashhur bo'lgan buyuk muhaddisning ilmiy merosi bu borada yuksak qadrlanadi. U tomonidan yaratilgan "Al-Jome' as-sahih" asari hadis ilmining eng ishonchli manbalaridan biri sifatida e'tirof etilib, asrlar davomida musulmon olamida asosiy qo'llanmalardan biri bo'lib kelmoqda.

Imom al-Buxoriy o'zining chuqur ilmiy izlanishlari, hadislarni saralashdagi qat'iy mezonlari va mukammal metodologiyasi bilan hadis ilmini yangi bosqichga olib chiqdi. Uning faoliyati natijasida hadislarni to'plash, tekshirish va tizimlashtirish jarayoni ilmiy asosga ega bo'ldi. Bu esa nafaqat hadis ilmining rivojlanishiga, balki islom huquqi va aqidaviy qarashlarning shakllanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda hadis ilmining taraqqiyoti, ayniqsa Imom al-Buxoriyning ushbu jarayondagi o'rni, uning ilmiy merosi tahlil qilinadi.

### **Asosiy qism**

Mustaqillik yillarida xalqimiz o'zining ko'p asrlik milliy qadriyatlari hamda boy diniy-ma'rifiy merosini qayta tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu jarayonda Markaziy Osiyo hududining islom sivilizatsiyasidagi o'rni va ahamiyatini chuqur o'rganish masalasi alohida dolzarblik kasb etdi. Zero, ushbu mintaqa qadimdan ilm-fan markazlaridan biri sifatida hadis ilmining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Mustaqillikning ilk bosqichlarida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ulkan ilmiy merosni o'rganish, ularni izlab topish, nashr etish va keng jamoatchilikka yetkazish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, VIII–IX asrlarda bu hududda ilm-fan, ayniqsa diniy ilmlar jadal taraqqiy etib, ko'plab yetuk allomalar yetishib chiqishiga zamin yaratgan. Buxoro, Samarqand, Termiz kabi shaharlar yirik ilmiy markazlarga aylanishi natijasida ko'plab yetuk muhaddislar yetishib chiqdi.

Natijada buyuk muhaddislar Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziy, fiqh ilmining yirik namoyandasi Burhoniddin al-Marg'inoniy, kalom ilmining asoschilaridan Abu Mansur Moturidiy, shuningdek tasavvuf namoyandalari Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro hamda Bahouddin Naqshband kabi allomalarning boy ilmiy-ma'naviy merosi qayta tiklanib, ilmiy asosda o'rganila boshlandi.

Imom al-Buxoriy 810-yilda Buxoro shahrida tavallud topgan bo'lib, yoshligidan ilmga, ayniqsa hadis ilmini o'rganishga katta qiziqish bildirgan Imom al-Buxoriy ilm izlab keng hududlarga safarlar qilgan yirik muhaddislardan biridir. U dastlab Hijoz o'lkasiga yo'l olib, Makka, Madina, Toif va Jidda shaharlarida taxminan olti yil davomida istiqomat qilib, ilm tahsil qilgan. Shundan so'ng u Iroq hududlariga yo'l olib, Basra, Kufa hamda Bag'dod kabi yirik ilm markazlarida bo'lib, mashhur ulamolar bilan muloqotda bo'lgan [1].

Keyinchalik u Shom va Misr diyorlariga safar qilib, bu yerlarning ham yetuk olimlaridan saboq oldi. Bundan tashqari, Xuroson mintaqasining Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray va Jibol kabi shaharlarida ham bo'lib, u yerlarda faoliyat yuritgan muhaddislardan hadislar rivoyat qilib, o'z ilmiy zaxirasini yanada boyitdi.

Imom al-Buxoriyning hadis ilmidagi eng katta xizmatlaridan biri, hadislarni saralash va ularning ishonchliligini aniqlashda qat'iy ilmiy mezonlarni ishlab chiqqanligidir. U rivoyat qilinayotgan hadislarning isnod (roviylar zanjiri) va matnini chuqur tahlil qilib, faqat ishonchli deb topilgan hadislarni o'z to'plamiga kiritgan. Imom al-Buxoriy hadis ilmi taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi tufayli islom olamida va muhaddislar orasida yuksak ehtirom bilan tilga olinadi. Uning ilmiy salohiyati va xizmatlari e'tirof etilib, turli sharafli unvonlar bilan ulug'langan. Jumladan, u "Amir al-mo'minin fil hadis" (hadis ilmida mo'minlar amiri), "Imom al-muhaddisin" (muhaddislar peshvosi), "Al-imom al-muqaddam" (ilg'or va yetakchi imom), "Sayyid al-fuqaho" (faqihlar sardori), "Imom ad-dunya" (butun musulmon olami e'tirof etgan imom) hamda "Shayx al-islom" (islom ulamolari ustoz) kabi yuksak nomlar bilan e'zozlangan [4].

Alloma tomonidan tasnif etilgan asarlar qatoriga "Al-jome' as-sahih", "Al-adab al-mufrad", "At-tarix al-kabir", "At-tarix as-sag'ir", "At-tarix al-avsat", "At-tafsir al-kabir", "Birrul volidayn", "Asmo as-sahoba", "Kunyalar" kabi asarlar kiradi. Ushbu asarlar hadis ilmi, tarix va axloqiy masalalarni yoritishda muhim manba sifatida e'tirof etiladi [2].

Mazkur asarlar orasida ayniqsa "Al-jome' as-sahih" alohida o'rin tutadi. U islom olamida Qur'oni karimdan keyingi eng ishonchli va muhim manbalardan biri sifatida yuksak qadrlanadi hamda asrlar davomida ilm ahli uchun asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilib kelmoqda[6]. Imom al-Buxoriy "Al-Jomi' as-Sahih" kitobini 16 yilda yozib tugatib, unga 7275 dan ortiq sahih hadislarni boblarga ajratib tartibli ravishda jamladi. Bular orasida takrorsizlari soni 2602 tani tashkil qiladi. Izohlar, roviylarning

ixtilofi va ilovalarni qo‘shilsa, kitobda keltirilgan hadislar soni 9082 taga yetadi. Imom al-Buxoriyning xizmatlari tufayli Movarounnahr hududida IX–XII asrlarda ko‘plab hadisshunoslik maktablari shakllanib, muvaffaqiyatli faoliyat olib bordi. Hozirgi kunda uning asarlari dunyoning o‘nlab tillariga tarjima qilingan bo‘lib, islom olamida ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llanilmoqda. Ushbu asarlar shuningdek, insoniy fazilatlarini targ‘ib qilishga xizmat qiladi: mehr-muhabbat, saxiylik, ochiq-ko‘ngillilik, ota-ona va kattalarga hurmat, yetim va kam ta‘minlanganlarga muruvvat, faqir va bechoralarga yordam, Vatanga sadoqat, mehnatsevarlik va halollik kabi qadriyatlarni amaliy tarzda ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu hadislar jamiyatda namunali tartibot va axloqiy me‘yorlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

### **Xulosa**

Xulosa o‘rnida Imom al-Buxoriy Markaziy Osiyo va butun islom olamida hadis ilmining rivojlanishida beqiyos hissa qo‘shgan buyuk muhaddis sifatida tarixda o‘zining muhim o‘rnini egalladi. Uning faoliyati faqat ilmiy sohada cheklanib qolmay, xalqimizning diniy-ma‘rifiy merosi va insoniy qadriyatlarini boyitishga xizmat qilgan. “Al-jome‘ as-sahih” asari nafaqat hadislarini ishonchlilik mezonlari bo‘yicha saralash va tartiblashda, balki axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni yetkazishda ham asosiy manba sifatida xizmat qilmoqda.

Imom al-Buxoriy ilmiy merosining natijasida Movarounnahr hududida ko‘plab hadisshunoslik maktablari shakllangan va ularning faoliyati avlodlar davomida davom etgan. Hozirgi kunda uning asarlari dunyoning o‘nlab tillariga tarjima qilinib, islom ilm-fani va ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llanilmoqda.

Shu tariqa, Imom al-Buxoriy nafaqat hadis ilmi rivojiga, balki insoniy fazilatlarini targ‘ib qilish, jamiyatda axloqiy tartibot va namunali qadriyatlarni shakllantirishga ham beqiyos hissa qo‘shgan. Uning ilmiy va ma‘naviy merosi butun musulmon olamida asrlar davomida o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda, bu esa uni tarix va diniy madaniyat sohasida bebaho shaxs sifatida e‘tirof etilishiga sabab bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf va boshqalar. Oltin silsila. Sahihi Buxoriy. – T.: Hilol-nashr, 2016. – J. 1. – B. 498.
2. Abdussalom Mubarakfuriiy. Siyrot al-Imom al-Buxoriy sayyid al-fuqaho va imom al-muhaddisin. – Makka: Dor olim al-favoid, 2001. – B. 452.
3. D. Fuad Sezgin. Tarix at-turos al-arabiy. – Saudiya Arabistoni: Imom Muhammad ibn Saud universiteti, 1991. – J. 1. – B. 228.
4. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. “Al-Jomi as-sahih”. Toshkent, 1991, 5-bet. “Qomuslar Bosh tahririyati”.
5. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар. Андижон. Китоб-альбом. Ўзбек, рус, инглиз тилларида. – Т.: Uzbekistan Today, 2015. – 340 б.
6. Ислам энциклопедияси. 3. Хусниддинов тахрири остида. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – 320 б.